

SHAXS SHAKLLANISHIDA DESTRUKTIV XULQ-ATVORNING NAMOYON BO'LISHI

Jurakulova Dildora Ziyadullayevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Psixologiya kafedrası dotsenti, ps.f.n.

Noraliyeva Mexribon Asomiddinova

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi

Annotasiya: Ushbu maqola o'smirlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi yot g'oyalar haqida fikrlar shakllangan bo'lib, bola shaxsining shakllanishiga ta'sir qiladigan destruktivxulq-atvorni bartaraf etishga qaratilgan jarayonlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: O'smir, his-tuyg'u, tajovuzkor, muvaffaqiyatsizlik, norma va talab, xo'rlanish va qo'rquv, destruktiv xulq, faza, pubertatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования представлений о чуждых идеях, влияющих на развитие подростков, и процессы, направленные на устранение деструктивного поведения, влияющего на формирование личности ребенка.

Ключевые слова: Подросток, эмоция, агрессия, неудача, норма и требование, унижение и страх, деструктивное поведение, фаза, половое созревание.

Insondagi destruktiv xulq tabiati hozirga qadar psixologiya fanining asosiy muammolardan biri sanaladi Bu muammo 20 asrning o'rtalarida shakllangan. Destruktiv xulq-jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy xulq ko'rinishlariga zid bo'lgan, har qanday muqobil fikrlarni inkor etishga yo'naltirilgan xulq ko'rinishidir.

Destruktiv xulq nafaqat insonda ma'lum bir ijtimoiy muammolarni, balki uning jismoniy sog'ligida ham muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bolalar orasida deviant hulq-atvor elementlarining namoyon bo'lishi, ularning xatti-xarakatlari, shaxslararo munosabatlari, antiijtimoiy faoliyatlarida aks etadi. Ko'pincha «noqobil oilalar» guruhiga kiruvchi oila farzandlarida hulq og'ishga moyillik kuchli bo'ladi. Ammo bu bilan faqat shu guruhga kiruvchi bolalar tartibbuzarliklar sodir etadi deb baho berish to'g'ri bo'lmaydi.

Ko'pchilik bilan doimo muloqotda bo'lgan, bolalaikning sho'xligi, odobsizligini boshdan kechirgan bolalar xayot qadriyatlari, ko'pchilik bilan muloqot usullarini egallashadi, hayotning turli qaltis vaziyatlariga ham tayyor bo'lishadi. Bolalarning qiziqishlari, mayl va extiyojlarining e'tibordan chetda qolishi vaqt o'tishi bilan ularda balog'at yoshiga kelib nevrotik holatlar, uning oqibatida somatik kasalliklar, ongsiz norozilik, ichki nizolar, qondirilmagan bolalik mayllarining o'rmini qoplashga intilish moyilligini oshishini bashorat qilish mumkin. O'smirlik davrining asosiy o'ziga xosligi bolalikdan kattalikka o'tishidadir. Bu davr fiziologik

rivojlanish va jinsiy yetilishning keskin jadallashuvi davridir. Bu davrga o'smirlar tomonidan shaxs salbiy xususiyatlarining namoyon bo'lishi va ularning almashinib turishi: goh mulokotga kirishuvchan, goh aksi, goh qo'vnoq, goho esa g'amgin va x.k. lar xarakterlidir. O'smirning asosiy maqsadi - o'z-o'zini anglash va uxshashlikni shakllantirish (tengdoshlaridek bo'lish). Bolalikdan kattalikka o'tish hammada ham tekis kechavermaydi. Shunga kura o'smirlikda shaxs shakllanishi 3 turga bulinadi (E. Shpranger).

Birinchi tur uchun davrning ikkinchi marta dunyoga kelishdek jushkin, krizisli kechishi xosdir. Uning yakuni - yangi «Men»ning yuzaga kelishi.

Ikkinchi tip uchun davrning sillik, kuchli asabiylashishlarsiz shaxs shakllanishi xosdir.

Shaxs shakllanishining uchinchi turiga esa ongli va faol ravishda o'z-o'zini tarbiyalash, xavotir va inkirozlarni mustaqil yengish xosdir.

Sh. Byuler jismoniy pubertat bilan bir katorda psixik pubertatni hamda uning ichidagi 3 ta fazani ajratdi.

Birinchisi - bu psixik pubertatlikning arafasi bo'lib, 11-12 yoshli o'smirda kuyidagi aloxida belgilar paydo bo'ladi: beboshlik, urushkoklik, bolalar o'yinlari unga qizik ko'rinmaydi, undan kattarok o'smirlarning o'yinlari esa tushunarsiz bo'ladi.

«Arafa» undan keyingi 11-13 yoshdagi qizlar va 14-16 yoshdagi o'g'il bolalarni o'z ichiga olgan salbiy (negativ) faza bilan almashinadi. Atrof muhitga o'tuvchi tez ko'zgaluvchanlik va bezovta holat, noziktatilik, jismoniy va ro'hiy darmonsizlik, o'zidan norozilik, kabilar bu davrga xos asosiy belgilardir. Shuning uchun ko'pchilik o'smirlarda o'ziga va atrofidagilarga bo'lgan nafratni va uning natijasi bo'lgan o'zini yolgiz, begona va boshkalar tomonidan tushunilmagan sezish kabi holatlarni uchratishimiz mumkin. Bu vaqtda bola asosan, qarama-qarshiliklarga, salbiy ta'sirlarga uta Yoshlar xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanishida ijtimoiy-psixologik ta'sirlarning tutgan o'rni sezgir bo'lib qoladi, bunday vaziyatlar bolada yoki agressiv o'z-o'zini ximoya kilishni yoki passiv melanxoliyani keltirib chikaradi. Salbiy faza yakuni - jismoniy yetilishning yakunlanish vaqtiga to'g'ri keladi.

Ijobiy (pozitiv) faza o'smirning muhitning ijobiy taraflariga (aspektlariga) ta'sirchan bo'lib kolishi bilan boshlanadi. Uning oldida xursandchilikning manbalari paydo bo'ladi, ularning ichidan Sh. Byuler birinchi o'ringa «tabiatning hayajonlanishi» - go'zallikni ongli hayajonlanishini kuyadi. Rivojlanish uchun qo'lay sharoitda xursandchilikning manbalari san'at va ilm bo'lishi mumkin. Bularga «eng kuchli tangliklardan ham chiqarib yuboruvchi» muxabbat ham qo'shiladi.

Bu yeshda jinsiy yetilish natijasida bola organizmida va ruxiyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi. Bu bolaning qiziqishlar soxasini anchagina o'zgartiradi. Bunda qiziqishlar rivojining ikki xususiyatini kurishimiz mumkin: bir tomondan yangi qiziqishlar va mayllarning paydo bo'lishi (ijtimoiy hayotga, texnikaga, qahramonlik va sargo'zashtlarga boy kitoblarni o'qishga; ko'pchilikda sportga qiziqish kuchayadi), ikkinchi tomondan - avval o'rnatilgan qiziqishlar tizimining yukolishi (undagi negativizm, qarama-qarshi xarakter shundandir). L.S.

Vigotskiyning yezishicha aynan shu ikki xususiyatning uygunlashuvi bir karashda g'alati fakti - qiziqishlar kamayishi yoki bazan umuman yukolishini xarakterlaydi. Bu vayron etuvchi faza davomida o'smir o'z bolaligiga barham beradi, shuning uchun ham L. N. Tolstoy bu bosqichni «o'smirlik saxrosi» deb ataydi.

Bu fazaga pessimistiklik, jamoa bilan alokalarning buzilishi, bolalar orasidagi oldingi o'rnatilgan munosabatlarning o'zlashishi, shu bilan birga dustona munosabatlar ham, yolg'izlikka intilish, boshqa insonlarga bo'lgan munosabatlarning keskin o'zgarishi, jamiyat xulq-atvor koidalari bo'ysunmaslik kabilar xosdir.

O'smirning o'ziga bo'lgan talablari doimiy tashkaridan kullab-kuvvatlashlarga muxtoj bo'ladi. Kator motivlarning mukim emasligi, gaplari va xatti-harakatlarining o'zgaruvchanligi ham shu yerdandir. Bundan tashkari ushbu yeshdagilarga uylangan masalalarni omadsizlikka uchrashiga sabab buluvchi yukori talablarning kuyilishidan dalolat beruvchi, maqsadlarning imkoniyatlar bilan mos emasligi xarakterlidir.

Katta yoshdagi o'smirlarni atrof-dagilarning fikriga nisbatan ko'proq o'z fikrida kolishi, ularning motivlari avvalambor o'zining shaxsiy fikrini xisobga olgan holda shakllanishiga olib keladi va oxir okibat ularning kaysarliklarida namoyon bo'ladi.

Kichik yeshdagi o'smirlarda maktab chegaralaridan tashkariga chikish, kattalar hayotiga qo'shilish, shuningdek ijtimoiy muhitda o'z urnini topib uni ximoya kilish kabi yangi extiyejlar vujudga keladi. Yukoridagi extiyejlar fakat Yoshlar xulq-atvori va dunyoqarashining shakllanishida ijtimoiy-psixologik ta'sirlarning tutgan o'rni yetakchi faoliyat (o'qish) o'zgartirilgandagina qondiriladi. Mulokot shunday bo'lib qoladi.

Tarbiya o'smirning to'g'ri psixologik rivojlanishiga asos bo'lib qoladi. Ota-ona (o'qituvchi, tarbiyachi va hokazo) shuni unutmaslik kerak, o'smirning rivojlanishi u uchun eng og'ir hayotiy jarayon. o'smirni o'sishi natijasida, uni hotirasi, nutqi, his-tuyg'ulari o'sadi. Har bir odamning bu davri atrof muhit bilan, ijtimoiy rivojlanish bilan, qobiliyati va qolaversa bolaning temperamenti va uning yaqinlari bilan bog'liq. Bu sabablar shaxsni tubdan o'zgartirishi mumkin.

O'smirni tarbiyalashda kamchiliklar katta muammolarga olib keladi. O'smirni noto'g'ri yo'lda turishi, bu jamiyat bilan aloqada bo'lmasligi yoki yetarli darajada aloqa qilmaslikda. Yana o'smirlik hususiyatlari, bu yoshlikdan yetuklikka o'tishlik davri bilan bog'liq.

O'smirni fikri bo'yicha, atrof-dagilar, ya'ni sinfdoshlari va tengdoshlari unga qaraganda, yaxshi sharoitdagi uylarda yashaydilar. Tarbiyachilar va o'qituvchilar til topisha olmay, bolani uy sharoiti bilan tanishmay, uning muammolariga e'tibor bermay, ko'pincha uning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadilar. O'smirlik davri eng kriminogen davri.

O'smirni turmush sharoiti. (jismoniy va ruhiy kamchiliklari, yetimlik va hokazo) Ko'pchilik holatlarda o'smir o'z "shaxs" strukturasini boshqa muhitda topmoqchi bo'ladi. Atrof-dagilarni nasihatlari uni battar jahlini chiqaradi, o'zlarini o'ta "bilimli" qilib ko'rsatib, e'tiborini jalb qiladi. Ozg'in, past bo'ylik o'g'il bolalar, rivojlanishida orqada qolgan bolalar, atrof-dagilarga kichkina, moslashmagan bo'lib ko'rinadi. Va shu muhtojlikni sezgan holda, himoyada agressivlikni namoyon qiladi.

Bunday hulq o'z-o'ziga ishonmaslik, atrofdagilarga shafqatsizlarcha muomala qilishga olib keladi.

Bunday muammolar bolani rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. O'sib kelayotgan organizm tashqi tushunmovchiliklar bilan atrof muhitni har hil his etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Salayeva M.S. O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan nom diss. – T.: 2005. – 15 b.

2. Malkina-Pykh IG Inqirozli vaziyatlarda psixologik yordam - Moskva: Eksmo nashriyoti, 2005. - 960 p.

3. Джуракулова Д.З. // Влияние психологического насилия в семье на формирование деструктивного поведения подростков // Вестник Интегративной Психологии, 2024 Выпуск 33, часть 2.

4. Джуракулова Д.З. // Роль психологического насилия в формировании личности ребенка // Multidisciplinary Journal of Science and Technology Vol. 4 No. 11 (2024) 467-470 стр